

**EKOLOGIK SOLIQQA TORTISH TIZIMINING FAOLIYATI: XORIJIY  
TAJRIBA**

*O'zbekiston Respublikasi  
Soliq qo'mitasi huzuridagi  
Fiskal instituti magistranti  
Niyozova Sugdiyona Mehmonovna  
[Niyozova\\_sm@gmail.com](mailto:Niyozova_sm@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekologik soliqlar, ularning tushunchasi va yig'implar kontsepsiyasini O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini amalga oshiradigan va yuklangan majburiyatlar sifatida talqin qilish haqida so'z yuritiladi. Iqtisodiy faoliyat natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun soliq to'lovchiga davlat tomonidan tartibga solinishi ko'rsatiladi. "Ekologiya" tushunchasi doirasida to'lovchilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni soliqqa tortish orqali tartibga solish ko'lamini va soliq siyosatining vositalari majmuasi sifatida soliqqa tortishning ushbu turini ajratib ko'rsatiladi. Muallifning tadqiqotining asosiy masalasini atrof-muhitni tartibga solish uchun soliq vositalarini aniqlash va ularni O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq qonunchiligi asosida ekologik soliqqa tortish samaradorligini keyinchalik baholash imkoniyati bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologiya, soliq, ekologik soliq, ekologik soliqqa tortish tizimi, ekologik muammo, budget daromadlari, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslar, atrof-muhit, uglerod solig'i, soliqqa tortish, soliqlar va yig'implar, soliq kodeksi .

**Annotation:** This article will talk about the interpretation of environmental taxes, their concept and the concept of levies as obligations that implement and impose the tax policy of the Republic of Uzbekistan. For damage to the environment caused by economic activity, the taxpayer is instructed to be regulated by the state. Within the framework of the concept of "ecology", it is distinguished the scope of regulation of the relations that arise between payers by taxation and this type of taxation as a set of tools of tax policy. The main issue of the author's research is aimed at harmonizing the definition of tax instruments for environmental regulation and the possibility of their further assessment of the effectiveness of environmental taxation on the basis of the current tax legislation of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** Ecology, tax, environmental tax, environmental taxation system, environmental problem, budget income, environmental security, Natural Resources, Environment, carbon tax, taxation, taxes and fees, tax code .

**KIRISH**

Bugungi texnologik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari dunyo mamlakatlari oldiga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni kamaytirish, yangilari kelib chiqishining oldini olish kabi dolzarb masalalarni hal qilishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarish talabini qo‘ymoqda. Atrof-muhit muammolari hamda uning muhofazasi masalalari dunyoning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari hamda oliy o‘quv yurtlarida o‘rganilmoqda, jumladan, global ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va global isish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ozon qatlamining yemirilishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suv va havoning ifloslanishi, chiqindilarni boshqarish, o‘rmonlarni kesish hamda urbanizatsiya jarayonlari kabi mavzularda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, dunyoning jug‘rofiy-siyosiy tuzilishi o‘zgarib borayotgan hozirgi “sharoitda inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib qolmoqda”.<sup>1</sup>

Ekologik muammolarni bartaraf etish milliy xavfsizlikni ta‘minlovchi muhim omillardan biri hamdir. Shu bois tabiatni muhofaza qilish va boy tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni huquqiy tartibga solish davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini yaratish, milliy ekologik xavfsizlik muammolarini hal etish imkoniga ega bo‘ldi.

So‘nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy islohatlarning muhim yo‘nalishi sifatida ekologik munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi boshqaruvi ham tubdan isloh etilmoqda. Tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun uni to‘g‘ri tashkil etish, huquqiy kafolatini o‘rnatish, boshqaruvni zamon talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilandi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik soliqlarning mohiyati, ularning vazifalari, xususiyatlari va undagi muammolar bo‘yicha nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan T.Gobbs, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, M.Lorens, R.Kempbepl, K.Makkonnel, G.Menkyu, G.Buehler, A.Laffer, R.Musgrave, F.Ramsey, N.Turgenev, V.Tverdoxlebov, A.Voznesenskiy, V.Gluxov, L.Goncharenko, Ye.Yevstigaeev, A.Isaev, M.Kulisher, V.Panskov, A.Pogorleskiy, A.Sokolov, S.Sutirin, D.Tixonov, D.Chernik, T.Yutkinalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – T., 1998. – B. 109.

Mahalliy iqtisodchi olimlar O.Abduraxmanov, E.Gadoev, Sh.Gataulin, I.Zavalishina, A.Jo'raev, A.Islamkulov, T.Malikov, I.Niyazmetov, O.Olimjonov, X.Sobirov, Sh.Toshmatov, B.Toshmurodova, N.Xaydarov, A.Xayritdinov, Q.Yaxyoev, N.Qo'zievalarning ilmiy ishlarida soliqlar va soliqqa tortish, soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari o'z aksini topgan.

Davlatning ekologik funksiyasini tadqiq etish hamda shu asosda tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy-nazariy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga egadir. Bu borada amalga oshirilgan izlanishlar mavjuda bo'lib, bunga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni boshqarish faoliyati, ekologik ekspertizaning huquqiy muammolari hamda ekologik nazoratning ilmiy-nazariy masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar kiradi. Shu o'rinda U. T. Ayubov, U. B. Bozorov, F. X. Gaibov, A. K. Golichenkov, S. V. Gorelsev, N. N. Grishen, L. D. Dolgopolova, I. D. Jalilov, Z. M. Islomov, I. A. Karpovich, O. I. Kozir, A. X. Saidov, E. A. Surilyova, U. Tadjixanov, J. T. Xolmo'minov kabi olimlarning ilmiy asarlarini ko'rsatish mumkin<sup>2</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida Ekologik soliqqa tortish tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari va xalqaro amaliyotda ekologik soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat o'zining ekologik siyosatini amalga oshirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini shakllantiradi, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha ijro etish va farmoyish berish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari faoliyatini yo'lga qo'yadi. Vakolatli davlat organlarining faoliyati tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi deb tushuniladi<sup>3</sup>. Tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi orqali davlat tabiiy resurslarning mulkdori sifatida tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etish maqsadida ularni tassarruf etish huquqini amalga oshirishadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tiklanishni ekologik barqarorlik bilan mutanosib holda olib borish

<sup>2</sup> Аюбов У. Т. Лишение, ограничение и приостановление прав, связанных с природопользованием // Экологический вестник Узбекистана. – 1996. – № 3. – С. 26–28; Гаибов Ф. Х. Теоретические проблемы организации правовой охраны природных ресурсов в современных условиях. – Уфа, 2002; Голиченков А. К. Экологический контроль: теория, практика правового регулирования. – М., 1992. – С. 73; Горельцев С. В. Государственное управление в сфере экологии // Экологическое право. – М., 1997. – С. 180–186; Гришен Н. Н. Правовые проблемы воздействия общественности на охрану окружающей среды. – М., 2002; Исламов З. М. Общество. Государство. Право (Вопросы теории). – Т., 2001; Холмұминов Ж. Т. Экология ва қонун. – Т., 2000.

<sup>3</sup> Ekologiya huquqi. Darslik. – Toshkent: Adabiёт jamg'armasi, 2001. – B. 64-65.; Nigmatov A. O'zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYuI, 2004. – B. 79.; Brinchuk.M.M. Ekologicheskoe pravo. – M.: YuRIST, 1998. – S. 174.

davlatning tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv vakolatining kengaytirilishi va ma'muriy-huquqiy yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etadi<sup>4</sup>.

Bugungi kunda inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri butun dunyo bo'ylab tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Insoniyatning bunday xatti-harakati so'nggi o'n yilliklarda issiqxona gazlari chiqindilaridan tortib o'rmonlarning kesilishi va suvning ifloslanishigacha bo'lgan atrof-muhitning sezilarli darajada buzilishiga olib keldi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun, jumladan, xalqaro shartnomalar va me'yoriy hujjatlar orqali ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, barqarorlikni ta'minlash va inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi kerak deb hisoblaymiz. Ushbu muammolarni hal qilishning potensial vositalaridan biri ekologik soliqlardan foydalanishdir. Ekologik soliqlar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyatdan, masalan, ifloslanish va chiqindilarni hosil qilishdan olinadigan soliqlardir. Ushbu soliqlar faoliyatning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ularni qimmatroq qilish, ya'ni narxini oshirish orqali iqtisodiyotni ham rag'batlantiradi. Bu orqali ekologik soliqlar barqaror amaliyotlarni ilgari surish va inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga ham erishadi.

Ekologik soliqlar — bu atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyatdan olinadigan soliqlardir. Ushbu soliqlar faoliyatning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ularni qimmatroq qilish orqali iqtisodiy rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Ekologik soliqlarning bir nechta turlari mavjud. Umumiy turlardan biri bu uglerod solig'i bo'lib, u issiqxona gazlari chiqindilaridan olinadigan soliqdir. Ushbu soliq uglerod soliqlari emissiyalarni narxini oshirish orqali jismoniy shaxslar va korxonalarni uglerod izlarini kamaytirishga undaydi. Yana bir keng tarqalgan tur-bu chiqindixona solig'i yoki chiqindilarni joylashirganlik uchun soliq bo'lib, bu soliqdan tushgan tushumlar chiqindilarni yo'q qilish uchun safarbar qilinadi. Ekologik soliqlarning boshqa turlariga suvning ifloslanishiga olib keladigan faoliyatdan olinadigan soliqlar va havo ifloslanishiga olib keladigan faoliyat uchun olinadigan soliqlar kiradi.

Ekologik soliqlarning afzalliklari: Atrof-muhit soliqlarining asosiy afzalliklaridan biri bu ularning ifloslanishni kamaytirish salohiyatidir. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi faoliyatga soliq solish orqali ekologik soliqlar jismoniy shaxslar va korxonalar uchun ularning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun iqtisodiy rag'bat beradi. Masalan, uglerod solig'i jismoniy shaxslar va korxonalarni energiya tejaydigan qurilmalardan foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish yoki umumiy energiya sarfini kamaytirish orqali uglerod izini kamaytirishga undashi mumkin. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ekologik soliqlar ifloslanishni kamaytirish uchun

<sup>4</sup> Alixonov B.B. Ekologik barqarorlik // Huquq va burch. – Toshkent, 2010. – 36. – B. 11-14. 12

samarali vosita bo'lishi mumkin. Misol uchun, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Britaniya Kolumbiyasida uglerod solig'i uglerod chiqindilarining sezilarli darajada kamayishiga olib kelgan. Xuddi shunday, tadqiqot Birlashgan Qirollikdagi poligon solig'i chiqindilarni ishlab chiqarishni sezilarli darajada kamaytirishga olib kelganligini aniqladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ekologik soliqlar innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Masalan, "Energy Policy" jurnalida chop etilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Shvetsiyadagi uglerod solig'i qayta tiklanadigan energiya texnologiyalariga katta sarmoya kiritilishiga olib keldi. Xuddi shunday, tadqiqot Germaniyada azot oksidi chiqindilariga soliq solinishi ushbu chiqindilarni kamaytirish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga olib kelganligini aniqladi. Ekologik soliqlar ifloslanishni kamaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish potentsialidan tashqari, hukumatlar uchun ham daromad keltirishi mumkin. Bu daromad ekologiya dasturlari va tashabbuslarini moliyalashtirish yoki boshqa soliqlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, uglerod solig'idan tushgan daromad qayta tiklanadigan energiya dasturlarini moliyalashtirish yoki daromad solig'i yoki boshqa soliqlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Bir qancha mamlakatlarda katta daromad keltiruvchi ekologik soliqlar joriy qilingan. Misol uchun, Shvetsiyada 1991-yildan beri uglerod solig'i mavjud bo'lib, u hukumat uchun katta daromad keltiradi. Xuddi shunday, Birlashgan Qirollikda yiliga 800 million funt sterlingdan ortiq daromad keltiradigan chiqindixona solig'i mavjud.

Ekologik soliqlari bir qancha potensial imtiyozlarga ega bo'lsa-da, ular e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi kamchiliklarga ham ega. Ekologik soliqlarining kamchiliklaridan biri ularning kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga nomutanosib ta'sir ko'rsatish potentsialidir. Ekologik soliqlar ifloslantiruvchi faoliyatni qimmatroq qilganligi sababli, ular isitish va transport kabi asosiy ehtiyojlar narxini oshirishi mumkin. Bu, ayniqsa, qo'shimcha xarajatlarni o'zlashtirish uchun cheklangan moliyaviy resurslarga ega bo'lgan kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun ba'zi mamlakatlar ekologik soliqlarning kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga nomutanosib ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash choralarini ko'rdi. Masalan, Britaniya Kolumbiyasidagi uglerod solig'i soliqning qo'shimcha xarajatlarini qoplashga yordam berish uchun kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun chegirma dasturini o'z ichiga oladi. Ekologik soliqlarning yana bir potensial kamchiligi – bu ularning ayrim tarmoqlarga nomutanosib ta'sir ko'rsatish xususiyatidir. Ekologik soliqlari ifloslantiruvchi faoliyatga qaratilganligi sababli, asosiy ishlab chiqarish faoliyati shunga asoslangan faoliyat tarmoqlari uchun qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, uglerod solig'i, ayniqsa, neft va gaz sanoati kabi qazib olinadigan yoqilg'iga tayanadigan tarmoqlar uchun yuk bo'lishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun ba'zi mamlakatlar ekologik soliqlarning ayrim

tarmoqlarga nomutanosib ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash choralari ko'rdilar. Masalan, Britaniya Kolumbiyasidagi uglerod solig'i, ayniqsa, soliqdan ta'sirlanadigan ayrim tarmoqlar uchun soliq imtiyozlarini joriy qildi. Ekologik soliqlarning afzalliklarini maksimal darajada oshirish va ularning mumkin bo'lgan kamchiliklarini kamaytirish uchun ularni diqqat bilan loyihalash muhimdir.

Ekologik soliqlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi birinchi marta qonunchilik darajasida 1973 yilda Yevropa Ittifoqi<sup>5</sup> tomonidan "ifloslovchi to'laydi" tamoyili ko'rinishidagi mezonlar asosida rasman o'rnatilgan. Shunday qilib, bu davrda ekologik xarajatlarni qoplash joriy etildi, ekologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy usullariga o'tish amalga oshirildi, soliq tizimining neytralligi saqlanib qolgan holda ko'kalamzorlashtirish jarayoni uslubiy asosda amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida "ekologik soliqqa tortish tizimi" tushunchasi hali ilmiy doiralarda shakllanmagan, ammo paydo bo'lgan kontseptsiya tufayli taxminan o'n yil oldin muhokamalarda paydo bo'lgan. Ekologik soliqqa tortishni tartibga solish atrof-muhitga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish, sotish va aylanmasi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan soliqlar va yig'imga orqali amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston Respublikasida ushbu tartibga solish amaldagi soliq qonunchiligi asosida ekologik soliqqa tortish tizimini shakllantirish uchun mavjud soliqlar va yig'imlarga ekologik tarafkashlik berish va yetishmayotganlarini joriy etish orqali amalga oshirilishi kerak.

So'nggi yillarda ko'plab olimlar ekologik soliqlarning kontseptsiyasi va mohiyati masalalarini ko'rib chiqdilar va ushbu toifaga nisbatan ma'lum bir tasavvurni shakllantirdilar, shuningdek, turli darajadagi faoliyat bilan, ekologik soliqlarning zarurligi va maqsadga muvofiqligini muhokama qilishdi va muhokama qilishda davom etmoqdalar. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ekologik soliqni kiritish, bu esa o'z navbatida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish uchun to'lovlarni almashtirishi kerak.

## XULOSA

Bugungi kunga kelib, milliy soliq tizimi, ekologik tartibga solish turli xil vositalar majmuasi bilan amalga oshiriladi va tizimni tashkil etmaydi. Biroq nazariy yondashuvlar evolyutsiyasi va ularning amaliy tadqiqot etilishi ma'lum darajada atrof-muhitni tartibga solishning nazariy asoslarini shakllantirdi. Turli mamlakatlarning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishidagi global tendentsiya milliy iqtisodiyotlarni yashillashtirish, shu jumladan, soliqqa tortish, lekin shu bilan birga, "ekologik soliq" endi atrof-muhitni tartibga solishning optimal vositasi emas. Shunday qilib, ekologik

<sup>5</sup> Калининченко П.А. Шестая программа действий Европейского Сообщества в области окружающей среды и комментарий к ней: перевод и комментарий / П.А.Калининченко. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://eulaw.edu.ru/spisok-dokumentov-po-pravu-evropejskogo-soyuza/shestaya-programma-dejstvij-evropejskogo-soobshhestva-v-oblasti-okruzhayushhej-sredy-i-kommentarij-k-nej-perevod-i-kommentarij-p-a-kalinichenko/>

xarajatlarni hisobga olish metodologiyalarini izlash davom etmoqda, bu tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholash usullarini sintez qilish natijasida biz O'zbekiston Respublikasida ekologik soliqqa tortishning amaliy qo'llanilishi doirasida takliflarni ishlab chiqdik. Ular quyidagilar iborat:

1) "Ekologiya soliq" qonunda soliq siyosatini atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi iqtisodiy tartibga solish usuli sifatida birlashtirish, bu ekologik jarayonlarni tartibga solishning iqtisodiy vositasi sifatida ekologik soliqqa tortish tizimining tushunchasi va tuzilishini ochib beradi.

2) atrof-muhitni tartibga solish sohasidagi ilmiy nazariy yondashuvlar va amaldagi soliq qonunchiligi asosida O'zbekiston Respublikasida ekologik soliqqa tortish jarayonini kontseptsiyalash, bu soliq tizimini ekologik tartibga solish doirasida muvofiqlashtirishning maqsadga muvofiqligini qonuniy ravishda belgilaydi;

3) soliqlar va yig'implarning milliy tizimini soliqlar va yig'implarda ekologik omil mavjudligidan kelib chiqqan holda tasniflash mezoni pozitsiyasidan tasniflash, bu esa amaldagi soliq qonunchiligida qo'llaniladigan soliqlar va yig'implarni pozitsiyadan o'zaro bog'lash imkonini beradi;

Shunday qilib, ekologik soliqqa tortish bugungi kunda tizimning shakllanish jarayonini aks ettiradi va ekologik jarayonlarni tartibga solishning qo'llaniladigan mexanizmi samaradorligini baholash shaklida o'z aksini topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: "Adolat", 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi" 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-73-son qarori
5. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 359-sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli qarori, 2012 yil 21 mart

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-4996-sonli qarori
8. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
9. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
10. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. - 448 b.
11. Alimardonov M., To‘xsanov Q. Soliq nazariyasi. –T.: “O‘zbekiston Yozuvchilaru yushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2005. -175 b.
12. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. -247 b.
13. Sanaqulova B. Kichik tadbirkorlik sub‘ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash. Monografiya. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. -252 b.
14. Mahmudov N., Adizov S. Soliqlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini baholash: nazariya, amaliyot va modellashtirish. Monografiya. –T.: “Fan”, 2014. -106 b.
15. Alardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho‘lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.
16. Sobirov H. O‘zbekiston davlat moliyasi tarixi. – T.: “Ta‘lim manbai”, 2002
17. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002
18. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. –508 b.
19. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: «ИНФРА-М», 2008. -520 с.
20. Malikov T., Xaydarov N. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni).
21. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
22. <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
23. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
24. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti